XALQ DEPUTATLARI QUMQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 25-mart VII-5-54-8-114-K/25 Qumqo‘rg‘on tumani

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar to‘g‘risida

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar to‘g‘risidagi Qumqo‘rg‘on tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i B.Turdiyevning 2025 yil 23-yanvardagi 14-00625-son xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24- moddalariga muvofiq xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar to‘g‘risidagi Qumqo‘rg‘on tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘ining B.Turdiyevning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori 1-ilovaga muvofiq;

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2.Mazkur qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi orinbosari (Z.Eshqobilov)ga, bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (B Mamarajapov)zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NORMAMATOV
ANVAR MAMATOVICH

Xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tumani Kengashining
2025-yil 25-martdagi
VII-5-54-8-114-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qumqo‘rg‘on tumanidagi yer usti va yer osti suvlaridan foydalangan uchun belgilangan suv solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffiltsentlar

T/r	Tuman nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	**Qumqo‘rg‘on tumani**	**1,3**	**1,3**	**1,3**	**1,3**	**1,3**	**1,3**	**1,3**	**1,3**

Xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tumani Kengashining
2025-yil 25-martdagi
VII-5-54-8-114-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffisientlar. ming so‘mda

T/r	Tuman nomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepisa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar G‘isht-cherepisa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar
1	Qumqo‘rg‘on tumani	1,2	1,2	1,2	1,2	1,2	1,2	1,2